

Nasriddinzoda Isroiljon,

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

“Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini

o'rganish ICESCO” kafedrasida tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Ushbu maqola Sadr Shahid Husomuddin Umar ibn Abdulaziz va uning ukalari haqida ma'lumot beradi, ular o'zlarining ilmiy faoliyatlari bilan tanilgan va o'z vaqtida ilm va fiqhda yetakchi o'rin tutganlar. Maqolada, Sadr Shahid Umar ibn Abdulazizning ilmiy merosi, uning Hanifiy fiqhidagi ahamiyati va tarixiy roli batafsil yoritilgan. Ularning otalari Imom Sadr Al-Ajal Abdulaziz tomonidan ta'lim va tarbiya olishlari, fiqh va boshqa ilmiy sohalarda muvaffaqiyatli bo'lishlari ta'kidlangan. Maqolada, 536 hijriy (1141 milodiy) yilda Qatvon jangida musulmonlarning mag'lubiyati va Sadr Shahid Umar ibn Abdulazizning shahid bo'lishi ta'riflanadi. Bu jangda Saljuqiylar sultoni Sanjar bilan turkiylar va kofirlar o'rtasidagi to'qnashuvning natijalari muhokama qilinadi.*

Maqolada tarixiy voqealar, urushlarning tafsilotlari va Sadr Shahid Umar ibn Abdulazizning ilmiy merosi haqida keng ma'lumotlar beriladi. Ularning fiqhiy qarashlari va ilmiy asarlari zamonaviy tadqiqotchilar uchun qimmatli manba bo'lib, ushbu asarlar hali to'liq o'rganilmagan va sharhlanmaganligi ta'kidlanadi. Shuningdek, maqolada Sadr Shahidning Hanafi mazhabining rivojlanishidagi o'rnini va ilmiy merosining ahamiyati haqida fikrlar bildiriladi.

Kalit so'zlar: *Sadr Shahid Husomuddin, saljuqiy, Sulton Sanjar, Hanafi mazhabi.*

Sadr Shahid Husomuddin Umar ibn Abdulaziz va ukalari Al-Masdar As-Said Toj ud-Din Ahmad otalari Imom Sadr Al-Ajal Abdulaziz qaramog'ida voyaga yetishgan. Ular o'z bolalarning ta'limi va tarbiyasi bilan shaxsan o'zlari

shug'ullanganlar. U ikkisini boshqalarda mavjud bo'lmagan g'amxo'rlik, go'zal o'rnak, ilmga erishishdek shart-sharoitlar bilan ta'minladilarki, hatto ular fiqhda o'sha asrdagi ko'plab faqih olimlardan oshib ketishdi. Sadr Shahid rohimahulloh bir emas, balki ilmning bir necha turlarida ko'zga ko'ringan, mahoratli imom edilar va Hanifalar orasida fiqhda, usulda, kalom ilmida, tafsirda va munozara-yu bahsda mashhurlardan bo'lganlar.

Sadr Shahid Umar rohimahulloh ulkan hurmat, ulug' fazl va mashhur kitoblar egasi edilarki, hatto, shohlar ham ularning fikrlariga quloq solishardi. Bu holat Alloh taolo ularga Safar oyining beshinchi kuni 536/1141-yili Qatvon jangida kofirlar qo'lida shahidlik nasib qilguniga qadar davom etgan. Bu jangda musulmonlar mag'lubiyatga uchrashgan.

Bu to'qnashuv Qatvonda saljuqiylar sultoni Sanjar bilan turkiylar va xattoblar boshlig'i kofir Kurxon o'rtasida 536/1141-yili bo'lgan, bu jang musulmonlarning mag'lubiyati va Sadr Shahid Umar ibn Abdulazizning shahid bo'lishlari bilan yakunlangan. Quyida ba'zi tarix kitoblarida bu hodisa haqida zikr qilingan ma'lumotlar to'liq holatda keltirilgan.

Muhammad Shokir al-Kutbiyning "Uyuni at-Tarix" nomli kitoblarida 536-yil voqealari haqida so'z yuritilgan. Unda aytilishicha: "Sulton Sanjar bilan Sulton Xorazmshoh o'rasida ko'plab urushlar bo'lgan. Xorazmshoh Sanjarning taslim bo'lganidan so'ng Marvni egallab oldi va uni yomon boshqaruvi sabab qatl ettirdi. Xorazmshoh qo'shinida uch yuz ming jangchi bor edi. Daryoni qazish ishlari yakunlagandan so'ng Behruz bag'dodlik kemalar uchun ustalarga Rim ipak matolarini tortiq qildi va Sulton Ma'sud bilan o'sha daryo bo'ylab kemaga mindi va sulton bundan behad sevindi. Bu daryo uchun yetmish ming dinor sarflangan. Bu haqida Tojuddin ibn Hamavayh o'z tarixida bir guruh Qozluq nomi bilan tanilgan turklar Movarounnahrda Samarqand atroflarida joylashganligini, uning o'tloqlarida chorvachilik qilishgani, yaylovlarida ko'chib yurishganini va ularda mol-mulklar, chorva mollari bo'lganini, lekin ularning aniq sonini bilishmas ekanligi aytib o'tgan edi. Ularning muomala va hurmatidan o'sha hududning xalqi faqat foyda ko'rdi, zarar topmadi. Ular boshqalarning qarzlaridan kechdilar va

hayvonlarini ekinzorlarda o'tlashini ta'minladilar. Sanjariya amirlari ularni ustiga qo'shin yuborib, mollarini egallashga, urush boshlashga undadilar. Qo'shinlar ularga tunda hujum qilib, bostirib kirishdi. Ularni surgun qilgunlaricha ularga hujum qilishdi va tazyiq o'tkazishdi. Ularning qo'shinlarini va mollarini o'zlashtirib, yosh bolalarini va qizlarini asirlikka olishdi, yigitlarini o'ldirishdi. Ular Marvazkand tomonlarga bosh olib ketishdi.

Bir guruh mashoyixlar Sanjar Sulton tomonga yuzlanib o'zlariga yetgan zararlar hamda o'z hollariga tashlab qo'yilganliklaridan shikoyat qilib aytishdiki: "Biz sahroda kecha-yu kunduz qarovsiz qolgan tuyalar bilan xarobalarda yashaydigan qavmmiz, va bizdan birontamizga zarar yetmaydi, shuningdek, yo'ldan ham qo'rqmaymiz. Qishloqni tashlab yerlarga zarar yetkazmaymiz. Shu bilan birga, biz har yilgi daromadimizdan Sultonga besh ming faros xiroj, hamda mollardan 35 ming bosh beramiz." Ammo Sulton ularga va avval bergan narsalariga ham e'tibor bermadi. Shu sababli, Shayxlari qaytishayotganda laqabi Xon Xoqon bo'lgan bir podshohdan yordam so'rashga qaror qilishibdi va uni shaharlarida qiziqtirib unga maqsadga erishishlari haqida gapirib berishibdi. Samarqanddan olti chaqirim uzoqlikdagi sahroga yetib bordi. So'ngra, askarlar saf tortishadi va tartiblanib, ikki dengiz to'qnashganidek ikki qo'shin ham bir biriga to'qnash keldi. Birinchi hujumda Sanjarning qo'shinidan besh mingtadan oshiq askarlar o'ldirildi. So'ngra, urush musulmonlarning qo'shini tugaguniga qadar davom etadi. Qahramonlari qirib tashlanadi, erkaklar holdan toyadi va Sanjar o'zining jonini qutqarishga majbur bo'ladi uning ayoli ham bolalari asirga olinadi. Amir Namaj, Ayyoz, Baan'iy bik, Biktamir Salah Daar va boshqalar urushda halok bo'ladi. Faqih Hasaam ibn Mazo Al Hanafiy ham shahid keltirildi. Shuningdek, Samarqand va Buxoroga yo'l olindi u yerlarni egallab olishdi va u yerdagi dushmanlardan xavf yo'qligi haqida xabar berib imorat hovlisida podshohlarini o'rab olishdi. So'ngra har bir shaharga noib tayinlandi. Odamlarning yashash sharoitlariga o'rganib olishdi va qo'ylarini yurtlariga qaytarishdi. Xorazmshoh ibn Takash ibn Otsiz hijriy 609-yil Mavorounnahr shaharlarini qaytarib olgunigacha ularning qo'l ostida bo'lgan va bu voqea Jumadul Axor oyining oxirlarida bo'lgan

edi.

Ibn Samo'aniy u yerga kelib: “Qachonki u bu urushga tayyorlanganida (Alloh undan rozi bo'lsin va rahmat qilsin) do'stlari va farzandlari bilan qaytmaydigan kishidek vidolashdi” degan. Shuningdek, Ibn Asir: “O'ldirilganlardan Husam ibn Umar ibn Mazo Al Hanafiy mashhur, aytgan: Islomda bundan buyukroq urush bo'lmagan va Xurosondagi urushda vafot etganlardan ko'proq bo'lmagan. Mavorounnahrda Kofir Turk va Xitoy davlati tashkil topdi. Kuruxon u yerda 37 yil qoladi, Rajab oyida, o'sha yerda vafot etadi.

Ba'zi tarixchilar bu hodisada o'ldirilganlarni aksini aytadi. Xitoy, Xito, Turklardan son-sanoqsiz qo'shin to'plandi va Sulton Sanjarning ortidan yurishadi. Sulton Sanjar Xuroson, G'azna, G'o'r, Sijiston askarlaridan iborat yuz ming qo'shin tomonda ketib boradi. 535-yil oxirida ularni Jayhun daryosidan o'tkazib qo'yadi va Sofar oyining 5-kunida ikki buyuk dengiz to'qnashganidek ikki qo'shin yuzlashdi so'ngra ulardan son-sanoqsiz odamlar o'ldirildi. O'sha vaqtda Sijiston boshlig'i yaxshi matonat ko'rsatdi, ammo musulmonlar mag'lub bo'lishdi va ulardan son-sanoqsiz kishilar o'ldirildi, hamda Sanjar ham mag'lub bo'ldi. Sijiston hokimi, musulmonlarning o'ng tomon qanoti va Sanjarning ayoli esa asirga olingandi. Kofirlar ularni ozod qilib yubordi.

Kelgan ma'lumotlardan mulohaza qilib Hanafiy mazhabining vujudga kelishi va uning Sadr Shahid o'zini fido qilgan Mavorounnahr shahridagi xususiyatlari. Bu asrda u mana shu bilan ajralib turganligi va usuliy jihatlari va fiqh xususan taniqli Hanafiy ulamolarining fiqhida uning dunyo miyosida paydo bo'lishi. Shuningdek, uning fiqhiy kitoblari hanuzgacha qo'lyozma nusxalarda saqlanmoqda, bu qo'lyozmalarga tadqiqotchilar bu ulug' imomning ilmiy merosi va qarashlarini dunyoga namoyon etishga muhtojdir. Ajabmaski, shu sababli fiqhiy kutubxonamiz savobi ulug' imomga yetib boradigan kitoblar bilan to'lsa...

Shuning bilan birga, bu imomning kitoblarini kashf qilish qiyindir, negaki, bu kitoblar oldin ko'p ko'rilmagan, izlanishlar olib borilmagan, sharhlari kam, dars ham berilmagan. Bu kitoblarni o'rganmoqchi bo'lgan kishilar ulug' imom nimalardan dalil sifatida foydalanganligiga e'tiborli bo'lib, ularni bayon ham

qilishi kerak.

Shuningdek, Sadr Shahid hanafiy fiqhida boshqalar aytmagan fikrlarni va qarashlarni aytib o'tgan. Ko'p fikrlari mazhab borasida bo'lib, bir qancha ishonchli fikrlarga ega. Bu esa, ulug' imomning merosini o'rganish zarurati sababli uning ilmiy qiymatini oshiradi. Mas'alalarda nima deyilgan bo'lsa, shunaqa tekshiruv olib borish shart bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абду Карим ибн Муҳаммад Самъаний. Ал-Ансаб. Қоҳира: Абдулрахмон ал-Яманий, Қоҳира кутубхонаси. 1980.
2. Абдулқодир Қураший. Ал-Жавоҳир ал-Музия фи Табақат ал-Ҳанафийя. – Дор Ҳажр: Абдул Фаттах Муҳаммад ал-Ҳалавий нашри, 1993.
3. Шамсуддин Заҳабий. Сияру Аълам ан-Нубала. – Қоҳира: Дор ал-Ҳадис, Муҳаммад Айман аш-Шабраоий нашри, 2006.
4. Маҳмуд ибн Сулаймон Кафавий. Катаиб Аълом ал-Ахёр мин Фуқаҳои Мазҳаб ан-Нуъмон ал-Мухтор. – Байрут: Дор ал-Кутуб ал-Илмийях, Абдул Латиф Абдурраҳмон нашри, 2019.
5. Муҳаммад ибн Абду ал-Ҳайй Лакнавий. Ал-Фавӯид ал-Баҳиях фи Тарожим ал-Ҳанафийя. Муҳаммад Бадриддин ан-Наъсоний томонидан тuzатилган. Дор ал-Кутуб ал-Исламий, 1324-ҳижрий йил.
6. Абу Ҳафс Умар Насафий. ал-Қанд фи зикри улама ас-Самарқанд. – Техрон: Юсуф ал-Ҳодий нашри, Мирас Мактуб Нашриёти, 1999.
7. Абу Ҳафс Умар Насафий. Фатаво Шайх ал-Ислам Абул-Ҳасан Ато ибн Ҳамза ас-Суғдий. – Амман: Муҳаммад Ёсир Шоҳийн нашри, Дор ар-Риёҳин, 2020.
8. Абу Бакр Абдуллоҳ ибн Умар Балқхий. Фазоили Балх. Форсий таржима: Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Муҳаммад ал-Ҳусайний ал-Балхий томонидан, Абдул Ҳайй Ҳабибий томонидан тuzатилган. – Техрон: Интишорот Бонияд Фарҳанг-э-Иран. 1350-ҳижрий йил.
9. Абу Бакр Муҳаммад Сарахси. Шарҳ ас-Сияр ал-Кабир. – Байрут: Муҳаммад Ҳасан аш-Шафиъий нашри, Дор ал-Кутуб ал-Илмийях, 1997.

10. Абу ал-Ҳасан Али Насир ибн Али ал-Ҳусайний Ҳусайний. Акҳбар ад
Давла ас-Салжуқийя / Муҳаммад Иқбол томонидан тузатилган. – Лоҳор:
1933.